



## ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,4 foizni tashkil qildi.


Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 7,4 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, tamaki mahsulotlari, avtomobil savdosiga, benzin va alkogolli ichimliklarga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarning o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 31,9 foizga ko'payishiga olib keldi.

**2018 yil yanvar oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda,  
chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan)**



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Qarshi shaxri (26,6 foiz), Koson tumani (9,4 foiz), Chiroqchi tumani (8,2 foiz), Qamashi tumani (7,3 foiz) va Kitob tumanlari (6,3 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiylashtirishni ko'rsatdi.

### **Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda**



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 19,1 foizga oshib, 207,4 ming.so'mni tashkil etdi (2016 yil yanvar-dekabr oylarida 174,2 ming.so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Qarshi shahari (647,3 ming. so'm), Shaxrisabz shahri (278,2 ming. so'm) Mirishkor (244,4 ming. so'm), Muborak (226,8 ming. so'm) va Dehqonobod (226,2 ming.so'm) tumanlarida kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 8,58 mlrd.so'mni tashkil etdi.



### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming.so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
<b><i>Qashqadaryo viloyati</i></b>	<b>207,4</b>	<b>119,1</b>
<i>G'uzor tumani</i>	126,4	117,7
<i>Dehqonobod tumani</i>	226,2	116,8
<i>Qamashi tumani</i>	185,0	115,7
<i>Qarshi tumani</i>	109,9	118,0
<i>Koson tumani</i>	225,1	115,7
<i>Kitob tumani</i>	161,3	116,8
<i>Mirishkor tumani</i>	244,4	118,6
<i>Muborak tumani</i>	226,8	120,2
<i>Nishon tumani</i>	172,2	117,5
<i>Kasbi tumani</i>	141,0	118,8
<i>Chiroqchi tumani</i>	138,5	115,4
<i>Shaxrisabz tumani</i>	105,1	73,3
<i>Yakkabog' tumani</i>	134,3	118,0
<i>Qarshi shaxri</i>	647,3	126,4
<i>Shaxrisabz shaxri</i>	278,2	-

## O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 96,8 foizni tashkil qildi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 86,1 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 419,9 mlrd.so'mi uyushmagan savdo hisobi-ga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 64,9 foizni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloytati statistika  
boshqarmasining

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni  
rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Ya. Xolto'raev  
(0371) 230-80-42



